



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI**



**2024- YIL YANVAR-OKTABR  
DASTLABKI MA‘LUMOT**

# O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari

## Qurilish korxonalari soni


2024-yil 1-noyabr holatiga, birlikda

2024-yil 1-noyabr holatiga O'zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 31 123 tani tashkil etdi. Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 7 104 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 22,8 % i Toshkent shahrida joylashgan.

Toshkent sh.	7 104
Toshkent	2 608
Farg'ona	2 388
Buxoro	2 385
Samarqand	2 361
Qashqadaryo	2 173
Surxondaryo	2 086

Andijon	1 883
Qoraqalpog'iston R.	1 690
Xorazm	1 601
Namangan	1 489
Jizzax	1 283
Navoiy	1 234
Sirdaryo	838

## Qurilish korxonalarini soni, birlikda



## Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2024-yil 1-noyabr holatiga, birlikda



## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida, O'zbekiston Respublikasida jami 185 039,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil etdi.


### Bajarilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar-oktabr oylarida hajmi, mlrd so'mda



### Bajarilgan qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati

yanvar-oktabr oylarida, % da



\* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

*Ma'lumot uchun:* qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

# O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari


2024-yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida, xususan, Toshkent shahri (47 663,1 mlrd so'm), Toshkent viloyati (19 379,6 mlrd so'm) va Buxoro viloyatida (12 622,6 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari

yanvar-oktabr oylarida

O'sish sur'ati % da

Hajmi mlrd so'mda



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 71,7% ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,7% ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,2% ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 114,6% ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,1% ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,5% ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati

yanvar-oktabr oylarida, % da



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari ulushi

yanvar-oktabr oylarida



**132 582,3**  
mlrd so'm

Bino va inshootlar  
qurish



**35 620,4**  
mlrd so'm

Fuqarolik  
obyektlarini qurish



**16 836,9**  
mlrd so'm

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 75,1 % i yoki 138 935,2 mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 36 739,8 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 26,4 % ni tashkil etdi.

26,4 %

36 739,8  
mlrd so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 57 621,1 mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 41,5 % ni tashkil etdi.

41,5 %

57 621,1  
mlrd so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 44 574,3 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 32,1 % ni tashkil etdi.

32,1 %

44 574,3  
mlrd so‘m

### Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi yanvar-oktabr oylarida, % da




\* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

## Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Toshkent shahri (32 772,2 mlrd so'm), Toshkent viloyati (12 575,4 mlrd so'm), Farg'ona viloyati (9 525,0 mlrd so'm) va Buxoro viloyatida (9 367,2 mlrd so'm) qayd etildi.

### Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'mda



## Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 21,6% ni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9% punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,6% punktga kamayib 39,8% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,3% punktga kamayib, 38,6% ni tashkil etdi.

**Bino va inshootlar qurilishining jami hajmi –132 582,3 mlrd so'm**



2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari (% da)

118,1

107,2


105,6



*Ma'lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (78,4%), Namangan viloyati (78,0%) va Navoiy viloyatida (77,6%) kuzatildi.

### Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishi hajmi

*yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'mda*



### Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi

*yanvar-oktabr oylarida, % da*



Jizzax viloyati  
**78,4**



Namangan viloyati  
**78,0**




Navoiy viloyati  
**77,6**

**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 34,2 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,2 % punktga kamayib 65,7 % ni tashkil etdi.


### Korxonalar turlari kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmlari va ulushi *yanvar-oktabr oylarida*



*Ma'lumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (55,2%), Sirdaryo viloyati (26,5%) va Buxoro viloyati (24,9%)da kuzatildi.

### Hududlar kesimida fuqarolik obyektlarini qurish hajmi

yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'mda



### Fuqarolik obyektlari qurish faoliyat turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi

yanvar-oktabr oylarida, % da



**55,2**

Samarqand viloyati



**26,5**

Sirdaryo viloyati



**24,9**

Buxoro viloyati

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga ko'paydi va 20,3 % ni tashkil etdi.

Qolgan 79,7 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi .

### Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

yanvar-oktabr oylarida

**3 422,9**

mlrd so'm

**Yirik qurilish tashkilotlari**

2023-yilning mos davriga nisbatan

**109,6 %**

**13 414,0**

mlrd so'm

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

2023-yilning mos davriga nisbatan

**103,3 %**


### Jamiga nisbatan ulushi (% da)

Yirik qurilish tashkilotlari

20,3

79,7


Kichik korxonalar va mikrofirmalar



*Ma'lumot uchun:* Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (14,3%), Namangan viloyatida (12,9%) va Qashqadaryo viloyatida (12,2%) kuzatildi.

### Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'mda



### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi

yanvar-oktabr oylarida, % da



14,3

Toshkent shahri



12,9

Namangan viloyati



12,2

Qashqadaryo viloyati

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi


yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

## Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati

yanvar-oktabr oylarida, % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2023-yil mos davriga nisbatan **124,8**

2023-yil mos davriga nisbatan **105,2**

2023-yil mos davriga nisbatan **105,5**

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 44 241,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 124,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,1 % ga ko'payib, 23,9 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi

yanvar-oktabr oylarida, % da



### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

yanvar-oktabr oylarida



\* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

*Ma'lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (33,1 % i), Navoiy viloyatida (27,8 %) va Qashqadaryo viloyatida (26,9 %) qayd etildi.

### Hududlar kesimida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

*yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'mda*

	858,4
Qoraqalpog'iston Resp.	633,8
Andijon	1 642,3
Buxoro	543,9
Jizzax	2 982,0
Qashqadaryo	2 691,5
Navoiy	697,2
Namangan	1 504,2
Samarqand	877,2
Surxondaryo	530,3
Sirdaryo	3 351,2
Toshkent	2 099,4
Farg'ona	803,4
Xorazm	15 779,8
Toshkent sh.	

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori ulushga ega hududlar, jamiga nisbatan  
*yanvar-oktabr oylarida, % da*



Toshkent sh.



Navoiy viloyati




Qashqadaryo viloyati




## Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 48,4% i to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,0% punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,2% ni tashkil etgan holda 89 614,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati yanvar-oktabr oylarida




\* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (71,7%), Sirdaryo viloyati (68,8%) va Jizzax viloyatiga (63,8%) to'g'ri keldi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududlar kesimida hajmi

*yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'm*



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori ulushga ega hududlar, jamiga nisbatan


*yanvar-oktabr oylarida, % da*



Samarqand viloyati



Sirdaryo viloyati




Jizzax viloyati

## Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 27,7% ni yoki 51 183,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 105,5% ni tashkil etdi. Shundan 39 219,4 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 110,1% ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 5 354,9 mlrd so'mni va 86,1% ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 6 609,5 mlrd so'mni va 98,7% ni tashkil etdi.

### Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi yanvar-oktabr oylarida, % da



### Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati yanvar-oktabr oylarida



\* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

## Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent viloyatida (7 886,4 mlrd so'm), Toshkent shahrida (5 760,3 mlrd so'm) va Buxoro viloyatida (4 983,9 mlrd so'm) qayd etildi.

### Hududlar kesimida norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'mda

	2 299,9
<b>Qoraqalpog'iston Resp.</b>	3 841,3
<b>Andijon</b>	4 983,9
<b>Buxoro</b>	1 293,7
<b>Jizzax</b>	3 196,5
<b>Qashqadaryo</b>	3 514,7
<b>Navoiy</b>	4 628,4
<b>Namangan</b>	1 568,4
<b>Samarqand</b>	3 430,3
<b>Surxondaryo</b>	595,6
<b>Sirdaryo</b>	7 886,4
<b>Toshkent</b>	4 140,7
<b>Farg'ona</b>	4 043,7
<b>Xorazm</b>	5 760,3
<b>Toshkent sh.</b>	

### Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori hajmga ega bo'lgan hududlar yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'mda



**7 886,4**

Toshkent viloyati



**5 760,3**

Toshkent shahri




**4 983,9**

Buxoro viloyati


## Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

**Ma'lumot uchun:** davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 5,2% i), Andijon viloyatida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 4,5% i) va Samarqand viloyatida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 4,3% i) qayd etildi.

### Hududlar kesimida davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'mda



### Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'mda




\* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

## Hududlar kesimida nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Toshkent viloyatida (98,0 %), Toshkent shahrida (98,0 %) va Farg'ona viloyatida (97,8 %) qayd etildi.

### Hududlar kesimida nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi *yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'mda*



### Nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi *(yanvar-oktabr oylarida, mlrd so'mda)*



\* 2023-yil uchun aniqlashtirilgan yillik ma'lumotlar asosida qayta hisoblangan.

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlari** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.